

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.A.Abduxalimov	
Andijon viloyatida sog'liqni saqlash muassasalari faoliyatidan.....	213
F.K.Yusupjanova	
Turli tizimli tillarda "head/bosh/ голова" somatik komponenti bilan makallarning qiyosiy-tipologik o'rganish	217
F.M.Mamadjanov	
Katta ma'lumotlar asrida milliy xavfsizlik tadqiqotlari.....	227
M.Komilova	
Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ta'limga jalb qilish	233
A.A.Abduxalimov	
Namangan viloyatidagi shifoxonalar faoliyati va ularning moddiy-texnik holati.....	239
I.R.Asqarov, M.M.Akbarova, Z.A.Smanova	
Portulaca oleracea o'simligining kimyoviy xossalari	242
S.M.Isroilova	
Muloqot qilish rus tilini oqitish jarayonida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish.....	249
Sh.V.Djalolov	
Umumta'lim maktab tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va organizmning funksional holatining monitoringi.....	253
A.A.Qambarov	
Marg'ilonlik katta ashula darg'alari.....	260
D.T.Samatov	
Falsafa fanini o'qitishda multimediyaviy storitellingdan foydalanishning samaradorligi.....	265
A.U.Azimov	
Yuksak axloqiy yoshlarni tarbiyalashda fuqarolik jamiyatining o'rni	269
A.A.Ahrorqulov	
Oliy ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurash.....	275
D.A.Mamajonova	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiya va korrupsiyaviy xavf-xatar tushunchalari.....	279
M.M.Mamadaliyeva	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavflar tahlili	282
U.O'.Musoyev	
Buxoro xonligida yer egaligi munosabatlari va ularning xududiy tavsifi.....	286
D.Y.Tashnazarov	
Yunon-rum kurashchilarini texnik usullarga o'rgatishda umumiy va maxsus tayyorgarligi	291
M.M.Alimova	
Ikkinchi jahon urushi arafasida mehnat intizomi (Buxoro viloyati)	299
R.Sh.Bozorova	
Gidropoetonimlarning onomastik birliklar tizimidagi o'rni.....	303
E.X.Zoyirov	
Ya'qubi Charxiyning "Tafsiri" da pir-murshid tushunchasi	307
A.S.Inomov	
Ichki ishlar organlarida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar strategiyasi.....	311
I.S.Aslonov	
O'zbekistonning mustamlakachilik davrida savdo va transport yo'llari tarixi	316
B.M.Jo'raquziev	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy siyosat masalalari	320
O.Radjabov	
Qirg'izistonda temir yo'llar tarixi	324
Y.Shukurillaev	
Sho'ro Rossiyasi tomonidan Buxoro amirligining bosib olinishi jarayonida to'plagan razvedka ma'lumotlari tahlili	330
M.M.Mamatkodiurov	
Maktablarda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodologiyasini yaratish uchun asosiy tizimli komponentlar.....	333
M.Sh.Qoraboeva	
Islom falsafasida intellektual faoliyat mezonlariga doir qarashlar tahlili	338

ANDIJON VILOYATIDA SOG‘LIQNI SAQLASH MUASSASALARI FAOLIYATIDAN
О ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧРЕЖДЕНИЙ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ АНДИЖАНСКОЙ
ОБЛАСТИ
ON THE ACTIVITY OF HEALTHCARE INSTITUTIONS IN ANDIJAN PROVINCE

Abduxalimov Abduraxmon Abdumo‘minovich¹

¹Abduxalimov Abduraxmon Abdumo‘minovich – Andijon davlat tibbiyot instituti dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Maqolada Andijon viloyatidagi shifoxonalar faoliyati va ularni qurish hamda ta‘mirlashdagi yutuq va muammolar, toza ichimlik suvi, telefon tarmog‘i, zamonaviy diagnostika va davolash uskunolari bilan ta‘minlangani, ushbu ishlarga Jahon banki tomonidan ajratilgan kredit mablag‘lari tahlil qilingan.

Аннотация

В статье анализируется деятельность больниц Андижанской области, достижения и проблемы в их строительстве и ремонте, обеспечении чистой питьевой водой, телефонной сетью, современным диагностическим и лечебным оборудованием, а также кредитные средства, выделенные Всемирным банком на эти работы.

Abstract

The article analyzes the activities of hospitals in Andijan region, achievements and problems in their construction and repair, provision of clean drinking water, telephone network, modern diagnostic and treatment equipment, and the loan funds allocated by the World Bank for these works.

Kalit so‘zlar: Andijon viloyati, shifoxona, poliklinika, moddiy-texnik baza, o‘rinlar, qurilish va ta‘mirlash.

Ключевые слова: Андижанская область, больница, поликлиника, материально-техническая база, места, строительство и ремонт.

Key words: Andijan region, hospital, polyclinic, material and technical base, places, construction and repair.

KIRISH

Istiqlol arafasida mamlakatning boshqa hududlarida bo‘lgani singari Farg‘ona vodiysi jumladan, Andijon viloyatida ham sog‘liqni saqlash muassalari faoliyati ulardagi qurilish, ta‘mirlash borasida qator ishlar amalga oshirilgan. Viloyatdagi shifoxonalarda bemorlarga qulay shart-sharoitlar yaratilgan. Aksariyat kasalxonalarining zamonaviy tibbiyot asbob-uskunolari bilan jihozlanishiga erishilgan.

Istiqlolning dastlabki yillarida Paxtaobod, Qo‘rg‘ontepa, Bo‘z (hozirgi Bo‘ston) va Buloqboshi tuman poliklinikalari, Izboskan va Andijon tumanlari davlat sanitariya – epidemiologiya nazorati markazlari binolari bitkazildi. Andijon shahrida markaziy stomatologiya poliklinikasi, Xonobod shahrida 410 bemor qabuliga mo‘ljallangan poliklinika, 50 o‘rinli bolalar kasalxonasi, Marhamat tumanidagi profilaktoriy binolari foydalanishga topshirilgan. Bu davrda viloyat aholisiga 98 ta shifoxona, 250 ta ambulatoriya va poliklinika muassasalari, 539 ta feldsher-akusherlik punktlari xizmat ko‘rsatdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Agar 1993–yili viloyatda har bir bemorga to‘g‘ri keladigan joy 4,2 m² bo‘lsa, 1994–yil 6 m² ga qadar kengaygan. Qiyin iqtisodiy sharoitga qaramay, davolash muassasalarining kapital qurilishiga ham katta e‘tibor qaratilgan. Jumladan, 1994–yil uchun kapital qurilishga 2 milliard 200 million so‘m mablag‘ ajratilgan bo‘lib, Qo‘rg‘ontepa tumanida 600 qatnovli poliklinika, Paxtaobod tumanida 150 o‘ringa mo‘ljallangan tuman kasalxonasi, Xonobod shahrida 60 o‘rinli shifoxona, 150 qatnovli poliklinika, Izboskan tumanida 150 o‘rinli yuqumli kasalliklar shifoxonasi va tuman sanitariya-epidemiologiya stansiya binolari foydalanishga topshirilgan [1:50].

1995–yilga kelib, viloyatda 133 ta qishloq vrachlik ambulatoriyasi loyiha asosida qurilib foydalanishga topshirilgan hamda 92 tasi toza ichimlik suvi bilan ta‘minlanib, 32 tasiga telefon tarmog‘i tortilgan. Mazkur davrda viloyatdagi 2 ming 537 ta feldsherlik-akusherlik punktlarining 64 tasi loyiha asosida qurildi. Qolganlari moslashtirilgan binolarda joylashgan edi [5:8]. 1996–yilda

Bo'z (hozirgi Bo'ston) tumanida Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti dasturi asosida ish olib borildi. Shu maqsadda Italiyadan 23 xil tibbiy asbob va jihozlar keltirildi [5:27].

O'rganilayotgan davrda aholi salomatligini saqlash, ularga tibbiy yordam ko'rsatishni yaxshilash yuzasidan tumanlarda ham salmoqli ishlar amalga oshirildi. Masalan, istiqloq sharofati bilan tashkil topgan Buloqboshi tumanida ilk o'tish yillarida kuniga 150 bemorga xizmat ko'rsata oladigan poliklinika, 1997–1998–yillarda Mayariq, Chaqar, Sarvontepa qishloqlarida qishloq vrachlik punktlari bunyod etildi [6:80].

Viloyat tumanlarida shoshilinch tibbiy yordam tizimini yaratish maqsadida 3 ta shahar va 14 ta tuman markaziy shifoxonalari qoshida 390 o'rinli 17 ta subfiliallar tashkil topdi. Keyingi ikki yil ichida viloyat shoshilinch tibbiy yordam tizimida 27 ming 618 ta bemor yotib davolandi, 13 ming 124 bemorga ambulatoriya yordami ko'rsatildi, 14 ming 131 ta bemor jarrohlik yo'li bilan sog'lomlashtirildi [7:68]. Ularga tizimida 70 ta shifoxona, 287 mustaqil ambulatoriya-poliklinika muassasalari, 4 tug'ruq uyi, 83 ta qishloq vrachlik ambulatoriyalari, 124 ta qishloq vrachlik punktlari xizmat ko'rsatdi.

2000–yil 1-yanvar holatiga davolash muassasalarida 14 ming 75 ta doimiy shifo o'rinlari mavjud bo'lib, har 1 ming aholini shifo o'rinlari bilan ta'minlanishi 6,4 foizga to'g'ri keldi [5:24]. Viloyatda keyingi yillarda sog'liqni saqlash sohasida sezilarli o'zgarishlar ko'zga tashlandi. 2003 yil dekabr holatiga jami 255 ta qishloq vrachlik punktlari, onalar va bolalar salomatligini saqlashga ixtisoslashgan zamonaviy muassasalar, shoshilinch tibbiy yordam markazlari tashkil etilganini alohida ta'kidlash lozim.

Ayniqsa, bu davrda Andijon shahri tom ma'noda respublikadagi yirik tibbiy markazlardan biriga aylangani e'tiborlidir. Bu yerdagi tibbiyot institutida olib borilayotgan ilmiy izlanish va tadqiqotlarning xalqaro miqyosda tan olinayotgani ham Andijon olimlarining yuksak salohiyatini ko'rsatadi [1:51].

Aholi sog'lig'ini muhofaza qilish bo'yicha qabul qilingan umumdavlat dasturlariga muvofiq viloyatda 9 ta davolanish muassasasi va 17 ta qishloq vrachlik punkti barpo etilgani tibbiy xizmat ko'rsatish ko'lamini kengaytirish va sifatini oshirish imkonini berdi. Viloyatda 15 ta tibbiyot muassasasida kapital ta'mirlash va rekonstruksiya qilish ishlari yakuniga yetkazildi, ularning 30 tasida esa bunday ishlar davom ettirildi.

Ayniqsa, Andijon davlat tibbiyot instituti shifoxonalari Yaponiya hukumatining granti asosida berilgan 87 ming AQSh dollari miqdoridagi zamonaviy diagnostika va davolash uskunalar bilan ta'minlangani alohida e'tiborga molik [2:22].

Tibbiyot hodimlari mehnatiga haq to'lash va ularni rag'batlantirish tizimining har tomonlama qayta ko'rib chiqilishi aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishni sifat jihatidan sezilarli darajada yaxshilash imkonini berdi. Natijada keyingi 2-3 yilda soha xodimlarining ish haqi 2 barobardan ziyod ko'paydi [3:51].

2011–yilda viloyat davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi qoshida AQSh ning «Bektel» kompaniyasi tomonidan biologik xavfni kamaytirish dasturiga asosan 760 ming AQSh dollari qiymatiga ega mintaqaviy diagnostika laboratoriyasi foydalanishga topshirildi. 464 ming AQSh dollaridan ziyod mablag' evaziga zamonaviy laboratoriya jihozlari o'rnatilishi natijasida o'ta xavfli yuqumli kasalliklarning respublika hududiga kirib kelishining oldini olish bo'yicha profilaktika ishlari samarali yo'lga qo'yildi.

O'z navbatida Qorasuv shahri va Bo'z (hozirgi – Bo'ston) tumani tibbiyot birlashmalari, OITsiga qarshi kurash markazi va qon quyish stansiyasi, viloyat va Qorasuv shahri davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlari to'liq modernizatsiya qilindi. Izboskan tumani tibbiyot birlashmasi, viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi, onkologiya dispanseri, Oltinko'l tumani davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi, Andijon shahridagi 1-tug'ruq majmuasi, Izboskan tumanidagi 2-son viloyat silga qarshi kurash dispanseri foydalanishga topshirildi.

Vazirlar Mahkamasining 2012–yil 29-martdagi 91-sonli qarori hamda Sog'liqni saqlash vazirligining 2012–yil 25-dekabrda 10-5/2523 sonli xati bilan belgilangan jadval bo'yicha budjetdan moliyalashtiriladigan shifo o'rin fondini 2012–2015–yillarda optimizatsiyasiga asosan Qo'rg'ontepa tumanidan 75 ta, Marhamat tumanidan 50 ta, Shahrixon tumanidan 65 ta shifo o'rin, viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazidan 40 ta o'rin qisqartirilishi, 150 o'rinli viloyat sil kasalliklar shifoxonasiga 90 ta o'rin qo'shilishi va 80 o'rinli viloyat travmatologiya va ortopediya shifoxonasini

tashkil etilishi va 50 o'rinli Andijon viloyat nogironlarni rehabilitatsiya qilish va protezlash markazining viloyat Sog'liqni saqlash boshqarmasi tarkibiga kiritilishi hisobiga jami shifo o'rinlari soni 10 ming 117 tadan 60 taga qisqarib, 10 ming 107 tani tashkil etdi. Har 10 ming aholini shifo o'rinlari bilan ta'minlanishi 34,8 dan 34,1 ga pasaydi [5:232].

Mamlakatdagi barcha shahar, qishloq poliklinikalarini 2014–yildan boshlab «Oilaviy poliklinika» tizimiga o'tkazish bo'yicha takliflar ma'qullandi va bu maqsad uchun Jahon banki tomonidan 67 million AQSh dollari miqdorida kredit mablag'i ajratilgan.

Andijon viloyat sog'liqni saqlash tizimiga kiritilgan investitsiya 2013–yilda 23,6 milliard, so'mni tashkil qildi yoki qariyb 10 barobarga ortdi. Mazkur yilda investitsiya dasturi asosida 10 ta obyektida qurilish-rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi.

Masalan, viloyat bolalar sil kasalligiga qarshi kurash sanatoriyasining 250 o'rinli davolash binosi va sport zali yangi qurildi. 50 o'rinli davolash binosi, oshxona va xo'jalik binolari rekonstruksiya qilindi. Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasi binolarining tomini yopish ishlari yakunlandi. Viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazining 150 o'rinli konsultativ poliklinika binosi rekonstruksiya qilindi va 150 o'rinli xirurgiya binosini, viloyat onkologiya dispanserining 50 o'rinli davolash binosini qurish hamda nur bilan davolash bo'limini kapital ta'mirlash ishlari nihoyasiga yetkazildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bu davrda tibbiyot muassasalarini qurish va qayta ta'minlash ishlari tumanlarda ham olib borildi. Jumladan, Asaka tuman tibbiyot birlashmasi 325 o'rinli davolash binosining rekonstruksiya ishlari, Baliqchi tuman tibbiyot birlashmasi Chinobod shifoxonasi 50 o'rinli tug'ruq kompleksi va 120 o'rinli davolash binosida rekonstruksiya ishlari, Markaziy shifoxona hududidagi 250 qatnovli ko'p tarmoqli markaziy poliklinika binosida qurilish ishlari, Oltinko'l tuman tibbiyot birlashmasi 30 o'rinli terapiya bo'limi va 250 qatnovli ko'p tarmoqli markaziy poliklinika binolarining rekonstruksiya ishlari, Izboskan tuman tibbiyot birlashmasida 75 o'rinli bolalar bo'limi binosining rekonstruksiya ishlari, 70 o'rinli rejali jarrohlik va ShTYo bo'limlari binosining rekonstruksiya ishlari, Andijon shahar tibbiyot birlashmasi 1-tug'ruq kompleksi 3 qavatli, 100 o'ringa ega bo'lgan davolash binosining qurilish ishlari amalga oshirilgan.

Viloyatda qurilish va ta'mirlash ishlari 2014–yilda ham davom etib, bu maqsad yo'lida 26,4 milliard so'mlik investitsiya kiritilgan [8].

2016–yilda Sog'liqni saqlash boshqarmasi tizimidagi 13 ta davolash-profilaktika muassasalarida 36 milliard 131 million so'mlik shuningdek 14 ta tumandagi 30 ta qishloq vrachlik punktlarida qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirildi [9].

2018–yilda qurilish-rekonstruksiya ishlari maqsadlashtirilib, isitish tizimlariga energiya tejovchi qozonlar o'rnatish ishlariga mahalliy budjetdan 7 milliard 429 million so'm mablag' sarflandi. Tez tibbiy yordam ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida 4 ming 682 ta o'rin birligi qo'shimcha kiritildi va 36 ta muassasa yumshoq mebel, kompyuter texnikasi, tibbiy jihozlar bilan ta'minlandi. Dori-darmon xarajatlarining o'ziga 50 milliard 150 million so'm ajratildi [10].

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 14-iyun kuni Andijon viloyati saylovchilari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvidagi ma'ruzasida o'zining saylovoldi dasturi yuzasida, avvalo, aholi salomatligini saqlash masalasiga ustuvor ahamiyat qaratdi.

Bunda aholi eng ko'p murojaat qiladigan birlamchi bo'g'in rivojlantiriladi. Kelgusi yetti yilda tuman va shaharlarda 700 ta yangi poliklinika tashkil etiladi. Bu orqali 3 million aholi uchun birlamchi tibbiy xizmatlar yanada yaqinlashadi. Ilk bor birlamchi bo'g'inda buyrak kasalliklari skriningi tashkil etiladi. Viloyat shifoxonalarida 400 turdagi yangi davolash va diagnostika usullari yo'lga qo'yiladi. Tibbiyot ta'limi ham takomillashtiriladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, birlamchi bo'g'indagi barcha oilaviy shifokor punktlari, poliklinika va shifoxonalar ta'mirlanib, filtrlangan ichimlik suvi va issiq suv bilan to'liq ta'minlanadi.

Gemodializ bo'limlari soni 2 karra ko'paytirilib, 200 taga yetkaziladi. Bu orqali barcha tuman va shaharlar mazkur xizmat bilan qamrab olinadi.

Tibbiyot xodimlariga ko'p yillar ishlaganlik uchun to'lanadigan ustamalar miqdori ham qayta ko'rib chiqilib, oshiriladi.

Tez tibbiy yordam avtomobil parki kelgusi yetti yilda to'liq yangilanadi va ularning 50 foizi elektromobillar bilan to'ldiriladi. Bu orqali yonilg'ining o'zidan yiliga 200 milliard so'm tejaladi va ushbu mablag'lar tez tibbiy yordam xizmatlarini rivojlantirishga sarflanadi

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. – Toshkent: O'zbekiston, 2004.
2. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni ksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezon va maqsadidir. – Toshkent: O'zbekiston, 2007.
3. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. – Toshkent: O'zbekiston, 2008.
4. Andijon viloyati Davlat Arxivi 713-fond, 116-ro'yxat, 522-yig'majild.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Arxivi Andijon viloyati bo'limi, 4141-fond, 6, 8, 15-ro'yxat, 29, 34, 178-yig'majildlar.
6. Eshonov G'. Intilganga tole yor (Buloqboshi tumani hokimligining faoliyati haqida hujjatli qissa). – Andijon: «Andijon» nashriyoti OAJ, 2002.
7. Shokarimov S., Sultonov A. Jannatmakon Andijon .–Toshkent: «Toshkent Islom Universiteti», 2002.
8. Tibbiyot gulshani. 2014 yil 10 yanvar №1 (8439)
9. Iqbol. 2017–yil 26 yanvar 5 (949)
10. Andijonnoma, 2019–yil 1 yanvar.